



QO'CHQOR NORQOBIL HIKOYALARIDA LEKSIK TAKRORLAR MATN QISMLARINI BOG'LOVCHI VOSITA SIFATIDA

Annotatsiya. Ushbu maqolada leksik takrorlarning badiiy matn qismlarini bog'lovchi vosita ekanligi va ularning Qo'chqor Norqobil hikoyalarida tutgan o'rni haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar. matn, matn qismlarini bog'lovchi vositalar, takrorlar, ot takrorlar, sifat takrorlar, olmosh takrorlar, fe'l takrorlar.

Аннотация. В этой статье объясняется, что лексические повторения являются связующим звеном частей художественного текста и что их в рассказах Кучкор Норкобила говорится о его роли.

Ключевые слова. текст, связующие части текста, повторы, существительные повторы, прилагательные повторы, местоимения повторы, глаголы повторы.

Annotation. This article describes that lexical repetition is a means of connecting parts of literary text and its role in Quchqor Norqobil's stories.

Key words. text, means of connecting parts of literary text, repetition, noun repetition, adjective repetition, pronoun repetition, verb repetition.

Bugungi kunda badiiy matn lingvistikasi zamonaviy tilshunoslikning eng ko'p murojaat qilinayotgan masalalaridandir. Tilshunoslikda ham boshqa sohalar singari, nazariyadan qochib, til hodisalarini real nutq vaziyatida o'rganishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda.

Matn bu yozma hujjat shaklida obyektlashtirilgan, turli xil leksik, grammatik va mantiqiy bog'lanishlar bilan birlashtirilgan bir qator bayonotlardan tashkil topgan, axloqiy xarakter, pragmatik munosabat va shunga mos ravishda adabiy qayta ishlangan ma'lum bir xususiyatga ega bo'lgan yozma xabardir.

Galperin fikriga ko'ra, matn ham sintaktik birlik va u ham xuddi gap hosil qilish uchun gap bo'laklari bir- biri bilan grammatik va mantiqiy bog'lanishni talab qilgani kabi, matn tarkibidagi gaplar ham o'zaro muayyan bir bog'lovchi vositalar orqali bog'lanadi. Bu esa matnning mazmuniy va struktural jihatdan bir butun yaxlitligini ta'minlaydi.

Ayniqsa, badiiy asar matnini yaratish yozuvchilardan ushbu vositalardan mohirona foydalanishni talab qiladi. Chunki o'ziga yuklangan ijodiy yukni kitobxonlar qalbiga to'la-to'kis olib kira olish uchun badiiy asar matni qismlari har tomonlama mustahkam bog'langan bo'lishi kerak.

Zamondosh adibimiz Qo'chqor Norqobil hikoyalarining o'quvchilar qalbidan chuqur o'rin egallaganining sababi ham balki yozuvchining ana shunday bog'lovchi vositalardan unumli foydalana olish mahoratidadir. Quyida adib hikoyalaridagi ba'zi bog'lovchi vositalar va ularning matn ekspressivligida tutgan o'rni xususida munozara yuritamiz.

Adib asarlarini lisoniy jihatdan tahlil qilar ekanmiz, unda bog'lovchi vositalarning deyarli barcha turidan foydalanilganiga guvoh bo'lamiz. Xususan, hikoyalarda uchraydigan takrorlar asar matnini o'zaro bog'labgina qolmay, undagi g'oyaviy maqsadni ham to'liq ta'minlay olganligi tahsinga sazovordir.



Avvalo, takror usuli nima ekanligi haqida soʻz yuritsak. Tilshunos olim M.Yoʻldoshev fikriga koʻra birinchi gapda qoʻllangan ayrim affikslar, soʻz, soʻz birikmalari va gaplarning keyingi komponentlar tarkibida takroran qoʻllanishi orqali matn shakllantirilishi mumkin. Takror usulidan aytilayotgan fikrni taʼkidlash, tasdiqlash, kengroq, batafsilroq ifodalash maqsadida foydalaniladi.

Takrorlash - soʻz yoki iboralarini takrorlash, buning natijasida oʻquvchi (tinglovchi) diqqatini ularga qaratadi va shu bilan ularning matndagi roli kuchayadi. Takrorlash badiiy matnga uygʻunlik beradi, uning hissiy taʼsirini kuchaytiradi, eng muhim fikrlarni taʼkidlaydi.

Takrorlanuvchi birlikning qaysi turkumga mansubligiga koʻra ot takrori, sifat takrori, olmosh takrori va feʼl takrori kabilarga boʻlinadi. Adib hikoyalari quyidagi soʻz turkumlari takrorini koʻrishimiz mumkin.

Ot takrori: *“U ayni damda oʻz **onasini** eslab yigʻlardi. U ayni damda **onasini** sogʻinganini his qildi – u **onasini** sogʻinib yigʻlardi, olislardagi **onasi** uni hozirgina oʻlim changalidan olib qolganini, olis-olislardagi **onasi** oʻz joniga ora kirganini savqi-tabiiy hissiyot bilan sezib turardi.*

*“Chindan ham **onamga** oʻxsharkan”, – oʻylardi u.*

*“Ha, **onamga** oʻxsharkan...” (“Ona” hikoyasi)*

Ushbu parchada ot soʻz turkumiga mansub boʻlgan “ona” soʻzi hikoya qismlarini bogʻlovchi vosita hisoblanadi.

Sifat takrori: *“**Yolgʻiz** – **yolgʻiz** oʻgil. Gʻulom bobo bilan Oysara xolaning **yolgʻizi**, ortida qoladigan yorugʻ izi.*

Harbiyga chaqiruv keldi.

***Yolgʻizni** afgʻon urushiga olib ketishdi.” (“Urushning surati”).*

“Urushning surati” hikoyasidan olingan ushbu parchada adibning soʻz qoʻllash mahoratiga yana bir bor guvoh boʻlamiz. Oʻsha paytda hammani, hattoki, u oilada yolgʻiz oʻgʻil boʻlsa ham, afgʻon urushiga olib ketilganini taʼsirchanroq qilib tasvirlash uchun adib hikoya qahramoniga Yolgʻiz degan ism qoʻyadi. Natijada kishi ismi boʻlgan Yolgʻiz va sifat soʻz turkumiga mansub yolgʻiz soʻzlari juftligi hikoya matnida oʻzgacha bir ahamiyat kasb eta boshlaydi.

Olmosh takrori: *“Hech kimning oldida tiling qisiq emas, odamlardan **oʻzing** bezding, odamlardan **oʻzing** olislashding. Aslida, sen **oʻzingdan oʻzing** qochding, **oʻzingdan oʻzing** bezding.” (“Nozi... Nozigul” hikoyasi)*

Hikoyaning bu qismida berilgan oʻzlik olmoshi matn qismlarini bogʻlabgina qolmay, maʼno kuchaytirish va hikoya taʼsirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Feʼl takrori: *“Qasam ichdi. Ogʻzidan ogʻir gap chiqdi. Buni bir Toʻxta **bildi**, oʻzi **bildi**. Poyidan oqib oʻtayotgan ariq **bildi**, boshdagi tonggi osmon, oyogʻi ostidagi yer **bildi** – borliq **bildi**.” (“Nozi... Nozigul” hikoyasi)*

Soʻz takrorlaridan tashqari biz ushbu hikoyalarda soʻz birikmasi va gap takrorlarini ham uchratishimiz mumkin. Masalan, “Nozi... Nozigul” hikoyasining olti oʻrnida kelgan *“**surxa, oq kishmish, tuyatish**”* kabi uzum navlarining takrori butun hikoyaning eng kulminatsion soʻzi boʻlgan desak, adashmaymiz. Bu soʻzlar hikoyaga oʻzgacha ruh, kitobxon qalbiga oʻzgacha hayajon olib keladi: *“...Bogʻiga traktor soldim. Bogʻning oxirgi joʻyagidagi uch tup tokni opqoldi. Bular **surxa, oq kishmish, tuyatish** deydi. Bularni buzmag, bularning egasi bor, deb tok tepasida uvillab yigʻladi...”* Adib hikoyada bu jumla



takroridan shunday mahorat bilan foydalanganki, natijada kitobxon nazdida ushbu soʻzlar hikoya qahramonlari boʻlgan Sarvar va Nozigul oʻrtasidagi muhabbat va sadoqat ramziga aylanib ketgan.

Adib asarlari ichida “Urushning surati” hikoyasi hajmi kichik boʻlsada urush suratini ayovsiz chiza olgan asar hisoblanadi. Ushbu asarda **“Men otamdan oldin oʻlganman...”** degan jumla takrori va unga ohangdosh qilib aytilgan **“Men bolamdan keyin oʻlganman...”** jumlasini butun hikoya mazmunini ifodalaydigan, oʻz zimmasida oʻta ogʻir yuk koʻtargan soʻzlar jamlanmasidir; yukki, kitobxonga kitob sahifalarini koʻz yoshlari bilan sugʻorishdan oʻzga chora qoldirmaydigan ogʻir yuk... *“Askar kiyimida jilmayib turgan oʻgʻlonning surati tagida : “Men otamdan oldin oʻlganman...” degan yozuvni oʻqidim. Oʻzimni qoʻlga oldim.*

–Ana, yonidagi Gʻulom otaning qabri, – dedi qoʻshnim.

Qabr boshidagi marmar lavhdagi: “Men bolamdan keyin oʻlganman...” degan yozuvga koʻzim tushdi. Endi oʻzimni tutolmadim.”

Ushbu misollardan koʻrinib turibdiki, Qoʻchqor Norqobil asarlarida mavjud leksik takrorlar nafaqat badiiy matn qismlarini bogʻlash uchun, balki matn ekspressivligini oshirish vositasi boʻlib ham xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гальперин И. Р. О понятии «текст» // Материалы научной конференции «Лингвистика текста». — Т. 1. — М., 1974. — С. 67.
2. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. —T.:1989.
3. Yoʻldoshev M., Yadgarov Q. Badiiy matnning lisoniy tahlili. —Toshkent, TDPU, 2007.
4. Yoʻldoshev M. Badiiy matn lingvopoetikasi.—Toshkent: Fan, 2008.— 160 b
5. Samodil: hikoyalar. Qoʻchqor Norqobil. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. — 400 b.

Rajabov Elshod Erkinovich
Navoiy davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi
Qiyomova Nigora Bahodir qizi
Buxoro viloyati Gʻijduvon tumani
34-maktab ona tili va adabiyot fani oʻqituvchisi

OʻZBEK VA INGLIZ XALQ IBORALARIDA “OILA” KONSEPTINING IFODALANISHI

Annotatsiya. Ushbu maqolada oʻzbek va ingliz tillaridagi frazeologik birliklar qiyosiy tahlil qilinadi.

Kalit soʻzlar: oila, maqol, naql, ota-ona, oʻgʻil, qiz, uygʻunlik, yaxshilik, tahlil.

Annotation. This article compares and analyzes phraseological units in Uzbek and English languages.

Key words: family, proverb, wise saying, parents, son, daughter, harmony, kindness, analysis.

Аннотация. В данной статье сравниваются и анализируются паремиологические единицы на узбекском и английском языках.